

**ISAJON SULTONNING "SHAMOLLI KECHA" HIKOYASIDA TABIAT
TASVIRI**

*Najmuddinova Sarvara,
Olimjonova Zarnigor*

*O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Institutining
Farg'ona Mintaqaviy filiali talabalari*

Annotatsiya: Ushbu magolada XXI asr o'zbek modern adabiyotiga katta hissa go'shib kelayotgan Isajon Sultanning "Shamolli kecha" hikoyasidagi tabiat tasviri masalasi ilmiy muomalaga tortilgan.

Kalit so'zlar: peyzaj, qahramon ruhiyati, ichki kechinma, badily asar, tasvir. ⬤

Adabiyotda inson va tabiat o'rta sidagi uzviy alogadorlik masalalari uzoq o'tmishdan buyon mavzular sirasida o'rganilib kelinadi. Inson yaratilganidan buyon hamisha tabiat bilan hamnafas umr kechirishi bu mavzu bilan bog liq bo'lgan jamiki tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi. Badiiy asarlarda beriladigan tabiat tasviri badily asar mohiyatini belgilab beruvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababdan ham badily asarda tabiat tasviri asarning ajralmas qismi hisoblanadi. Tabiat tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim omillardan sanaladi. Chunki manzaralar tasvirida ijodkorning so'z qo'llash mahorati, qalamga olingan mavzuga munosabati yuzaga chiqadi. Yozuvchi narsa-hodisalar, inson ruhiyati to'g'risida keng tasavvurlar va fantaziya gobiliyatiga ega bo'lgandagina, gobiliyati teran bilimlar bilan quvvatlangandagina uning ijodi tushunarli, yuksak badiiy ifodaviylik va ta'sirchanlik kasb etadi. Badiiy asardagi tabiat tasviri peyzaj (manzara) deb ataladi. Tabiat tasviri kompozitsiyaning tarkibiy qismlaridan bir bo'lib, asarning g'oyaviy-estetik ruhni oshiradi. Badiy asarda tabiat hodisalari va ko'rinishlari syujetning rivojini tezlatuchi yoki sekinlatuvchi omil sifatida ham tasvirlanishi mumkin.

Ammo tabiat manzaralaridan gahramonning ruhiy holatini ochib berish uchun foydalanish adabiy asarlarda eng ko'p uchraydigan hodisadir. Bu holda tabiat tasviri qahramonlar taqdiridagi chuqurlashtiradi ruhlariga kuch bash etadi. Demak, qahramonlarning bundan keyingi harakatlarini asoslab, syujet rivojiga ta'sir ko'rsatadi. "Shamolli kecha" hikoyasida I.Sulton yaratgan peyzajning vazifasini quyidagi tasvirlar orqali ko'rish mumkin: "Shamol bu makonlarda to'satdan qo'zg'aldi. Tog' oralarida yetilib, o'ngirlar orasidan o'kirib dahshat solib chiqib keladi. Qishloqning naridan-beri ohaklangan devorlaridagi changlarni uchirib, tomlarning qumlarini sochib, ko'cha tuprog'ini to'zg'itib-to'zg'itib esaveradi. Makkapoyani ag'anatib, yumlatib yuboradi. Dala-dashtdagi yumron inlarini qum bilan ko'madi, ovsarroq qushlar qurgan uyalarni tamomila buzib tashlaganida jajji polaponchalari

chirqillagancha yerga qulab tushib, vahshiy hayvonlarga yem bo'lishadi". Ushbu hikoyada tabiat tasviri shunday berilganki, uni o'qiyotgan kitobxon beixtiyor tabiatda bo layotgan hodisadan hayiqadi. Isajon Sultonning "Shamolli kecha" hikoyasida tabiat tasviri bilan birga asar qahramonlarining hayotiy va ruhiy holati qorishiq holda tasvirlanadi. O'gay onasining yonida, chaqaloqning big'illashi-yu otasining to'ng'illashi ostida qolishni istamay buvisining uyiga yo'l olgan bolalarning qorquvi va buni singlisiga sezdirmayotgan akaning holati aks ettirilgan. "Shamol battar shiddat urardi. Shunda daraxtlarning ko'lankalariga jon kirganday bo'ldi. Bir buta o'rnidan ilkis go'zg'alib yo'l ustiga tashlandi. Yum-yumaloq kattakon bir narsa shundoq yonginasidan yumalab o'tib qamishlar orasiga kirib ketdi. Akaning esiga buvisining ertaklaridagi dahshatlar keldi, go'yo bu allaqaysi jodugarning kesilgan boshi-yu "Hap senimi!" deya kimdir yumalab borib chuqurga tushib ketganday!"

Xulosa gilib shuni aytish mumkinki, yozuvchi peyzaj tasviri orgali o'z ichki kechinmalarini ba'zi detallar orqali aks ettiradi. Tabiat tasviri, umuman olganda, badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalana olgan yozuchi, ijodkor bu orqali o'z badiy mahoratini ham namoyon qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Sulton. Toshkent. 2005.
2. Adabiyot nazariyasi. "O'gituvchi" Nashriyot-matbaa ijodiy uvi.
3. D.Shodmonova. Yashar Kamol asarlarida peyzaj tasviri va uning tarjimalarda aks etishi. Translation forum. 2022.
4. I.Sulton. "Shamolli kecha".
5. D. Asgarova.hikoyalarida peyzaj tasvin
6. "Zamonaviy Eron adabiyoti namoyandasasi Roziya Tujjor